

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI MUDOFAA
SANOATI AGENTLIGI**



**DEFENSE INDUSTRY AGENCY
UNDER THE MINISTRY
OF DEFENSE OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Toshkent sh., Mirzo-Ulug‘bek tumani,
Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi, 434-uy. 100142
Telefon: 212-71-57, 212-71-30
info@defindustry.uz, defindustry@exat.uz

434, Buyuk Ipak Yuli street,
M. Ulugbek region, Tashkent, 100142
Telefon: (71) 212 71-57, 212 71-30
info@defindustry.uz, defindustry@exat.uz

20 25 yil “ 02 ” 10

45/3852 -son

**O‘zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar vazirligiga
Nusxasi: Adliya vazirligiga**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son** qarori bilan tasdiqlangan **1-ilovaning 64.4-bandida** barcha vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo‘lgan tashkilotlarning elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot doirasidagi loyihalari yangicha tartibda Axborot texnologiyalari vazirligi tomonidan muvofiqlashtirib borish tartibini joriy etish, uni amalga oshirish mexanizmi sifatida kelgusi yil uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid loyihalar, shu jumladan investitsiya va ijtimoiy-infratuzilmani rivojlantirish dasturlari yuzasidan takliflarni har yili 1-oktabrga qadar Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga kiritib borish to‘g‘risida topshiriqlar belgilangan.

Mudofaa sanoati agentligi Mudofaa vazirligiga bo‘y sunuvchi tashkilot ekanligi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid loyihalar, shu jumladan investitsiya va ijtimoiy-infratuzilmani rivojlantirish dasturlari Mudofaa vazirligi tomonidan tasdiqlanishi, shuningdek topshiriq belgilanganligiga 3 (uch) yildan oshganligini inobatga olgan holda “**edo.ijro.gov.uz**” tizimidan nazoratdan to‘liq yechish masalasini ko‘rib chiqishingizni so‘raymiz.

**Direktorning
birinchi o‘rinbosari v.v.b**

M. Polatov